

сенг

ТАЪЛИМ ВА ТЕХНОЛОГИЯ

Илмий-услубий мақолалар тўплами

III қисм

Тошкент – 2014

«Оркестрларнинг 40-60-йиллардаги ижодий фаолияти» деб номланган иккинчи бобда Тўхтасин Жалилов номидаги ўзбек халқ чолғу асбоблари оркестри ҳамда Дони Зокиров номидаги ўзбек халқ чолғу асбоблари оркестрларининг ижодий фаолияти кузатилади. Бунда ўзбек композиторларидан Собир Бобоев, Саид Алиев, Иброҳим Ҳамроев ва Дони Зокировларнинг асарлари ижрочилик нуқтаи назаридан таҳлил қилинади.

Муסיқа санъатида тарбия масалаларининг ўрни, шу билан бир қаторда мазкур масалаларнинг классик ва замонавий ижрочилик асносига қаратилган ишларда ёритилишини таҳлил қилар эканмиз, муסיқанинг тарбиявий имкониятларига маънавий-ахлоқий покланиш, жамиятни такомиллаштириш манбаи сифатида қарашимиз лозим бўлади. Шунинг учун ҳам ҳақиқий муסיқа санъатининг ҳаётийлиги ва зарурийлиги кўпроқ тарбиявий вазифаларнинг мувафакқиятли ҳал этилиши билан боғлиқдир.

Фойдаланилган адабиёт:

1. Омонуллаев Д., Иброҳимов О., Ёрматов Ш. Муסיқа: 8-с-ф.у-н дарслик. Т.: Ўқитувчи, 1995. -79 б.
2. Бабаева Л.М. Философско-эстетические основы восточной народно-профессиональной музыки: Автореф. дисс.канд. филос.наук. Т., 1994.- 28 с.
3. Пунинская И.И. Музыкальное воплощение темы сотворения мира: Автореф. дисс.канд. искусств, Т., 2005.- 27 с.
4. Муллажонов Д.М. 1990-йиллар ўзбек муסיқий эстрадасида оҳанг муаммоси: Санъат. фан. номз. дисс... автореф. Т., 2004. - 22 б.
5. Ташматова А.Р. Проблемы формирования и развития оркестрового исполнительства на народных (реконструированных) инструментах в Узбекистане. Автореф. дисс.канд. искусств. Т., 1998. - С. 15.

MILLIY MUSIQIY MEROS VA MA'NAVIY TARBIYA

A.Odilov, F.Odilova – SamDU, E.Abdukarimova – JDPI

Ona vatanni sevish, ardoqlash, milliy qadriyatlarni hurmat qilish tuyg'usi – muqaddas tuyg'udir. Bu muqaddaslikning g'oyaviy-badiiy ifodasi xalq musiqa merosiga mansub xalq qo'shiqlari, dostonlari, an'ana va afsonalarda o'zining o'chmas muhrini qoldirgan. SHu bois ham ulardan ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish ta'lim mazmunini boytish, uning milliy – tarixiy negizini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shunday ekan, bu ishni eng avvalo yosh avlod tarbisi uchun mas'ul mutaxassis, pedagog – o'qituvchilar tayyorlashga ixtisoslashtirilgan oliy o'quv yurtlarida tizimli yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ma'lumki, xalq musiqa merosiga oid bebaho xazina tarkibida xalq qo'shiq va ashulalari salmoqli o'rin egallaydi. Xalq qo'shiq va ashulalari, aytilari negizida xalq og'zaki ijodi yoki ayrim shoirlar ijodiga mansub adabiy matn yotadi. Bundan tashqari hozirgi zamonaviy bastakor va kompozitorlarning xalq ijodiyotiga oid

musiqiy asarlar ohangidan ijodiy foydalanib kelayotganligini inobatga oladigan bo'lsak, bu milliy san'atning naqadar ulkan ahamiyatga molik ekanligi ayon bo'ladi.

Xalq qo'shiq va ashulalaridagi ma'naviy va estetik g'oyalar kishilarda, ayniqsa yoshlarda vatanparvarlik, do'stlik, halollik, paklik, to'g'rilik, adolatlik, salbiy ko'rinishlarga nisbatan murosasozlik kabi insoniy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirishga ijobiy ta'sir etadi. Xalq musiqasi, xususan, xalq qo'shiqlarining tarbiyaviy ta'sirchanlikka ega ekanligining yana bir asosiy jihati, uning matnida o'z ifodasini topadi. Yuqorida ta'kidlab o'tilgani kabi ijobiy xislatlarni ulug'lab, salbiy illalarni qoralovchi matnga mos ravishda musiqa uyg'unlashib, inson hissiyotiga kuchli, emosional ta'sir etishi bilan estetik tarbiyaning qudratli vositalaridan biriga aylanadi. Moboda, qo'shiq musiqasiz aytilganda ham (katta ashula, chapak, qarsak jo'rligida aytiluvchi aytimlar) musiqaning o'rni, uning bevosita eshitilmas ta'siri sezilib turadi. Musiqa qo'shiqning estetik ta'sir va mavqeyini kuchaytiradi. Bu esa, ijrochilarni ham tinglovchilarni ham birdek tarbiyalashga, ularga estetik zavq baxsh etishga o'z ta'strini ko'rsatadi. Ajib she'riy misralar, usul, sehrli ohanglar bilan yo'g'rilgan qo'shiq, ashulalardagi his – tuyg'ular inson qalbida ezgulik va go'zallik hissiyotlarini o'yg'otadi. SHuning uchun ham, xalq qo'shiq va ashulalari, folklor dostonchilik aytimlaridan, ularning ma'naviy va estetik tarbiyaviy imkoniyatlaridan pedagogik maqsadlarda foydalanish yaxshi samara beradi va o'sib kelayotgan yosh avlodni yuksak ma'naviyat ruhida tarbiyalashga qo'yilgan ijtimoiy buyurtmani bajarishda qo'l keladi.

Bu o'rinda xalq musiqa merosiga oid asarlardan estetik va ma'naviy tarbiya vositasida foydalanganda ularning tarbiyaviy ta'sirchanlik xususiyatlarini aniq va to'g'ri baholash, ya'ni bo'lg'usi pedagog-tarbiyachilar tomonidan to'g'ri idrok qilinishiga erishish muhimdir. Oliy o'quv yurtlari, xususan pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalari ham o'z mutaxassislari bo'yicha ta'lim olish bilan birga uzluksiz davom etadigan estetik tarbiyaga muhtojdirlar. Ular turli fanlardan ma'ruzalar tinglash, amaliy mashg'ulotlarda muayyan bilim, ko'nikma va malakalarni egallab borish bilan birga estetik tarbiyaning turli ta'sirlariga duch keladilar. Adabiyot, san'atga oid ma'ruzalar, suhbatlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, turli musiqiy ko'rik-tanlovlarga tayyorgarlik, ishtirok etish, badiiy havaskorlik to'garaklari faoliyati, shuningdek, madaniyat va san'at dargohlariga, tomosha-sayillarga borish singari tadbirlar ham estetik tarbiya vazifasini bajaradi. Lekin, kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, respublikamizdagi pedagogika oliy o'quv yurtlarida estetik tarbiyani ta'lim-tarbiya tizimi oldiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar darajasida yo'lga qo'yilgan deb bo'lmaydi. Bu o'rinda ayniqsa, milliy qadriyatlarimiz sirasida muhim o'rin tutuvchi xalq musiqa merosiga, ulardan yoshlarni ma'naviy-ma'rifiy va estetik kamoloti yo'lida foydalanishga e'tibor sustligi, bu yo'nalishda chuqur o'zgarishlar qilinishini taqozo etadi. Bu narsa ayniqsa, oliy o'quv yurtlaridagi badiiy havaskorlik to'garaklariining nomigagina mavjudligi, ma'lumotda izchillikka rioya etilmasligi, (ular ko'pincha biror bayram, tadbirlarga tayyorgarlik oldidan mashg'ulot o'tkazadi yoki ko'rik-tanlovlarga qatnashish zarurati yuzasidan havaskorlar bila nish olib boradi) to'garak rahbarlarining bilim va

- 67 **И.Улуханов, Ш.Мадрахимов** – НамДУ, **И.Каримов** – ҚДПИ.
Механизм ва машиналар назарияси фани бўйича амалий
машғулотларда янги педагогик ва ахборот технологияларини
қўллаш тажрибаси 186
- 68 **A.N.Nuritdinov, H.A.Nuritdinova, B.Muxtorov** – SamDU.
Tasviriy san’atda pastel hamda guash bo’yoqlarida ishlash 188
- 69 **Д.Эргашев, Б.Хужамуродов** – СамДУ.
Тасвирий санъат ва компьютер графикаси фанларини ўқитишда
ахборот, компьютер технологияларининг имкониятлари 189
- 70 **А.Н.Нуритдинов, Х.А.Нуритдинова, С.Махсимов** – СамДУ.
Гипс нақш розеткасига қараб рельефини ишлаш 191
- 71 **С.С.Булатов** – ТДПУ, **А.Н.Нуритдинов, Х.А.Нуритдинова** –
СамДУ.
Амалий санъат асарларини бадиий таҳлил қилиш жарёнида халқ
огзаки ижоди намуналаридан фойдаланиш 193
- 72 **Р.К.Джалилова** – ФарДУ.
Тасвирий санъат таълими жараёнларида композициянинг ўрни 202
- 73 **Э.К.Джалилов, М.Ф.Тошпўлатов** – СамДУ.
Туркистонда мусикий даргоҳлар фаолияти хусусида 205
- 74 **Н.С.Киямов** – СамДУ.
Муסיқа санъатида тарбия масалалари 207
- 75 **A.Odilov, F.Odilova** – SamDU, **E.Abdukarimova** – JDPI
Milliy musiqiy meros va ma’naviy tarbiya 211
- 76 **A.Odilov, F.Odilova** – SamDU.
Musiqā darslari ta’lim samaradorligini ta’minlashda o’yin
metodlaridan foydalanish 213
- 77 **A.Odilov, A.Toshpo’latov** – SamDU.
Umumta’lim maktablarida “Musiqā madaniyati” darslarda
o’quvchilar ovozi bilan ishlash 216
- 78 **U.Ximoydinov**** – SamDU.
Musiqā ta’limida milliy musiqiy an’analardan foydalanish 219
- 79 **Х.Юсупов** – СамДУ, **Д.Улуғбоева, Д.Останақулова** – Тойлоқ
педагогика КХК.
Халқ қўшиқлари воситасида ўқувчиларнинг ахлоқий
маданиятини шакллантириш 221
- 80 **Ш.Турдиев** – Қўқон ДПИ.
Мактабда мусикий тўгарак ишларини ташкил этиш 222
- 81 **I.Qudratov, A.Mo’minov**** – SamDU.
Sinfдан tashqari mashg’ulotlar jarayonida musiqiy-tarbiyaviy va
musiqiy-ta’limiy vazifalarning uyg’unligi 225
- 82 **Х.С. Юсупов** – СамГУ, **Д.Улуғбаева** – Тайлакский педколлеж
Психодиагностические обследования школьных коллективов 227
- 83 **Х.С.Юсупов** – СамГУ, **Д.Остононақулова** – Тайлакский
педколлеж.
О некоторых аспектах психологической профессиональной